

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.T.Tursunova Ijtimoiy faollik tushunchasining mazmun-mohiyati va uning ijtimoiy-pedagogik xususiyatlari.....	244
Z.T.Aripov Bo'lajak o'qituvchilarni ijodiy o'z-o'zini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	247
N.O.Saidova Boshlang'ich maktabgacha yoshdagi bolalarda miqdoriy tushunchalarning o'ziga xos xususiyatlari.....	251
M.A.Abdubannobova O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimi jarayoni va uning joriy etilishi.....	254
O.A.Ashurova Ekoestetik madaniyatni rivojlantirishning ilmiy-pedagogik ahamiyati.....	257
B.Latipov Ta'lim va tarbiya sifatini oshirishda hamkorlik konsepsiyasining roli.....	261
T.Y.Bakirov, R.M.Mamatqulov O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini baholashda dasturiy ilovalardan foydalanish samaradorligi.....	265
V.T.Jo'rayev Oliy ta'lim massasalarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning o'rni.....	269
Z.M.Xursanova Boshlang'ich sinf o'quvchilarida mantiqiy tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari.....	274
M.A.Jalilov O'yin texnologiyalari-bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish vositasi sifatida.....	279
Z.X.Siddiqov Talabalar matematik kompetentligini rivojlantirishda noan'anaviy ta'lim yondashuvlar.....	283
M.G'.Zaylobidinova Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning ta'limni modernizatsiyalash orqali hayotiy ko'nikmalarini oshirish.....	287
Г.П.Наркабилова Влияние на формирование профессиональных компетенций будущих педагогов и интеграция в образовательную практику.....	291
M.Sh.Dehqonova Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik loyihalash ko'nikmalarini shakllantirishning turli bosqichlari.....	295
N.Q.Olimova Xalq og'zaki ijodi vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining talaffuzi va nutqini o'stirish metodikasini takomillashtirish.....	299
D.T.Rustamova Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish.....	304
Y.U.Egamberdiyeva Boshlang'ich sinf o'qituvchisiining kreativlik sifatlarini rivojlantirish.....	309
U.Y.Axmedova Texnologik ta'lim asosida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda algoritm tushunchasini shakllantirish.....	313
M.U.Buvajonova Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darslarida lug'at ustida ishlash metodikasi.....	317
M.A.Mamasaidova, S.Sobirova Matematikaga oid misol va masalalarni yechishda matematik tafakkurning muhim roli.....	321
M.A.G'ofurova Boshlang'ich sinfda o'quvchilarning matematikaga oid mantiqiy mushohada yuritish faoliyatini rivojlantirish.....	325
D.M.Gazieva Psychological and pedagogical aspects of media use in education.....	331



UO'K: 811.512+373.3.091

**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR NUTQIDA MA'NODOSH SO'ZLARNI
FAOLLASHTIRISH MODELINI TAKOMILLASHTIRISH****СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МОДЕЛИ АКТИВАЦИИ СИНОНИМЫ В РЕЧИ УЧАЩИХСЯ
НАЧАЛЬНЫХ ШКОЛЬНИКОВ****IMPROVING THE ACTIVATION MODEL OF SYNONYMS IN PRIMARY SCHOOL
STUDENTS' SPEECH****Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi** 
Farg'ona davlat universiteti, o'qituvchi**Анотација**

Ushbu maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilar nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish modelini takomillashtirish jarayoni tahlilga tortilgan. O'quvchilarda lug'at zahirasining kamligi, ona tilidagi so'zlaning lug'aviy ma'nosini bilmaslik, ma'nodosh so'zlar qatori haqida tushunchalarning yo'qligi yuqoridagi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Aynan boshlang'ich ta'lim yoshidan boshlab o'quvchilarda lisoniy shaxsni shakllantirish va boshqalar bilan muloqotga kirishishni o'rgatish uchun bu davr asosiy bosqich ekanligini hisobga olinsa, shu davrdan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirishga, so'z ma'nolarini farqlashni o'rgatishga e'tibor qaratish lozimligi haqida fikrlar berilgan. Ona tili ta'limiga xos bo'lgan o'qitishning amaliy metodlarini tanlash va ularni ta'lim jarayonida qo'llashga qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiyalarning takomillashuvini talab etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda ona tilini o'qitishga texnologik yondashuv va ta'limni texnologiyalashtirish hamda uning o'ziga xos bo'lgan natijasini baholash bu jarayon uchun muhim ahamiyatga egaligi haqida fikrlar bayon etilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirishning metodik tizimini takomillashtirish modeli yaxlit, ochiq tashkil etilgan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish metodikasini takomillashtirishni maqsadli rivojlantirish va belgilangan maqsadni natijaga mosligi haqida ilmiy qarashlar va xulosalar berilgan.

Аннотация

В данной статье анализируется процесс совершенствования модели активации смысловых слов в речи учащихся младшего школьного возраста. Недостаток у учащихся словарного запаса, незнание словарного значения слова на родном языке, отсутствие представлений о ряде слов с одинаковым значением вызывают проблемы, подобные описанным выше. Учитывая, что этот период является основным этапом формирования языковой личности учащихся и обучения общению с другими людьми, начиная с младшего школьного возраста, считается, что необходимо уделять внимание увеличению словарного запаса младших школьников и обучению их различать значения слов этого периода. Выбор практических методов обучения, специфичных для обучения родному языку, и совершенствование компетенций, отвечающих требованиям для их применения в образовательном процессе. С этой точки зрения для этого процесса важны технологический подход к преподаванию родного языка, технологизация образования и оценка его уникального результата. Комплексна и открыта модель совершенствования методической системы активизации смысловых слов в речи младших школьников, а также приведены научные взгляды и выводы о целенаправленной разработке методики активизации смысловых слов в речи младших школьников и соответствие поставленной цели результату.

Abstract

This article analyzes the process of improving the model of the activation of meaningful words in the speech of students of junior school age. Students' lack of vocabulary, lack of knowledge of the dictionary meaning of a word in their mother tongue, and lack of concepts about a series of words with the same meaning cause problems like the above. Taking into account that this period is the main stage for students to form a linguistic personality and learn to communicate with others from the primary education age, it is believed that it is necessary to pay attention to increasing the vocabulary of primary school students and teaching them to distinguish the meanings of words from this period. Selection of practical methods of teaching specific to mother tongue education and improvement of competencies that meet the requirements for their application in the educational process. From this point of view, the technological approach to the teaching of the mother tongue and the technologicalization of education and the assessment of its unique result are important for this process. The model for improving the methodical system of activating meaningful words in the speech of elementary school students is integrated and open, and scientific views and conclusions are given about the purposeful development of improving the methodology of activating meaningful words in the speech of elementary school students and the compatibility of the set goal with the result.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, sinonimlar, lug'at zahirasi, so'z ma'nolari, zamonaviy texnologiyalar, tahlil, pog'onaviylik xususiyati, modellashtrish, sintez, yaxlit tasavvur, tasniflash, loyihalash, taqqoslash, guruhlarga ajratish.

Ключевые слова: начальное образование, синонимы, лексика, значения слов, современные технологии, анализ, поэтапный признак, моделирование, синтез, комплексное видение, классификация, проектирование, сравнение, группировка.

Key words: primary education, synonyms, vocabulary, word meanings, modern technologies, analysis, stepwise feature, modeling, synthesis, integrated vision, classification, design, comparison, grouping.

KIRISH

Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarini modernizatsiya qilish sharoitida kichik yoshdagi maktab o'quvchilarni ona tilini o'rganishga jalb qilish hamda og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish muammolari dolzarb bo'lib qolmoqda. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning aksariyati ona tilida gap tuzish, fikr va tuyg'ularni ifodalash uchun ma'nodosh so'zlar qatoridan mos so'z tanlashga qiynaladilar. Buning asosiy sababi esa boshlang'ich sinf o'quvchilarida tildan foydalanish kompetensiyasining shakllanmaganligi, so'zlarning lug'aviy ma'nosini bilmaslik va ma'nodosh so'zlar qatori haqida tushunchalarning yo'qligidir. O'quvchilarda lug'at zahirasining kamligi, ona tilidagi so'zlarning lug'aviy ma'nosini bilmaslik, ma'nodosh so'zlar qatori haqida tushunchalarning yo'qligi yuqoridagi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Aynan boshlang'ich ta'lim yoshidan boshlab o'quvchilarda lisoniy shaxsni shakllantirish va boshqalar bilan muloqotga kirishishni o'rgatish uchun bu davr asosiy bosqich ekanligini hisobga olinsa, shu davrdan boshlab boshlang'ich sinf o'quvchilarining so'z boyligini oshirishga, so'z ma'nolarini farqlashni o'rgatishga e'tibor qaratish lozim. Ma'nodosh so'zlar ma'nosini tushunishni chuqurlashtirish, so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlashtirish o'quvchilarga obyektlar, harakatlar va belgilar haqidagi tushunchalarni ularning turlicha nomlanishi turlicha ma'no ifodalashini anglab etish imkonini beradi. [3]

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Har bir tilning leksik boyligi asosan ma'nodosh so'zlar bilan belgilanganligi sababli o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqda ma'nodosh so'zlardan erkin foydalana olishi ona tilini yuqori darajada egallaganlik ko'rsatkichi hisoblanadi. Biroq, bunday ko'nikma va malakaga erishish boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun oson bo'lmaydi. Ona tilini o'rgatishni takomillashtirish bo'yicha olib borilgan ko'plab tadqiqotlar va qator adabiyotlarda ma'nodosh so'zlar nafaqat boshlang'ich sinf o'quvchilarining, balki barcha til egalarining lug'at boyligini to'ldirish vositasi sifatida ko'rsatiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirishga texnologik yondashuv boshlang'ich sinf o'qituvchisidan ona tili va nutqiy muloqotga oid alohida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni emas, balki ularni ularni yaxlit tarzda egallashni talab qiladi. Ushbu talab bilan bog'liqlikda ona tiliga xos xususiyatlarni o'rgatish uchun o'ziga xos yangi metodlarni tanlash tizimi ham o'zgartirilishi zarurligini taqozo qiladi. Ona tili ta'limiga xos bo'lgan o'qitishning amaliy metodlarini tanlash va ularni ta'lim jarayonida qo'llashga qo'yiladigan talablarga muvofiq keladigan kompetensiyalarning takomillashuvini talab etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaralganda ona tilini o'qitishga texnologik yondashuv va ta'limni texnologiyalashtirish hamda uning o'ziga xos bo'lgan natijasini baholash bu jarayon uchun muhim ahamiyatga ega. [2]

Modelning mazmunli-texnologik blogi "mazmun" va "texnologik asosolarni" o'zida birlashtirgan bo'lib, "mazmun" komponentida "Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirishning metodik tizimini takomillashtirish" modelining maqsadga erishish mazmuni belgilangan. Maqsadga erishishning mazmunini "Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirishning metodik tizimini takomillashtirish" ga zamonaviy-texnologik yondashuvni tadbiq etishdan iborat.[6] Tadqiqotchi N.Ro'ziqulovanning tadqiqotida keltirilishicha, "Tizimli yondashuvga "belgilangan maqsad va erishilgan natija oralig'ida shakl, mazmun, vosita va usullarni mantiqiy ketma-ketlikda qo'llashni ifodalaydigan tushuncha" sifatida berilgan ta'rifdan kelib chiqib qaralganda, uning pog'onaviylik xususiyati, tizimning jarayonni to'liq qamrab olishi, asosida" boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirishga keng imkon tug'ilishini ko'rsatib berish mumkin.

Texnologik komponent boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tilini o'rganish faoliyatini tashkil etishda yaratiladigan didaktik shart-sharoitlar va o'quv jarayoni elementlaridan tashkil topgan. Mazkur jarayonning samarali amalga oshirilishi didaktik shart-sharoitlarni yaratish asosida

ta'minlanadi. Unga ko'ra, boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarga ma'nodosh so'zlarni ona tili darslarida o'rgatishda quyidagi asosiy metodlardan foydalanishi mumkin:

- modellashtirish (maqsadga muvofiq ijodiy o'zgartirish kiritish);
- sintez (yaxlit tasavvur hosil qilish uchun ma'lum bir ma'nodosh so'zlar qatoriga tegishli so'zlar ifodalagan xususiyatlarni umumlashtirish);
- tasniflash (ma'nodosh so'zlar qatoriga tegishli mavzuni umumlashtirish);
- tahlil;
- loyihalash (taqqoslash, guruhlariga ajratish).[1;5]

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilariga nafaqat ma'nodosh so'zlarni, balki ona tili grammatikasini o'rgatish fan kompetentsiyalariga, bilim, ko'nikma va uni rivojlantirishga qo'yiladigan talablar bilan nomuvofiq. Boshlang'ich sinf o'quvchisining kognitiv imkoniyatlari va ma'nodosh so'zlarni o'zlashtirish bilan bog'liq vaqt va tegishli vositalarning cheklanganligi, belgilab qo'yilgan talablar darajasidagi lisoniy shaxs shakllanishiga to'sqinlik qiladi. [8;13]

Ma'nodosh so'zlarni nutq jarayoniga, kommunikativ vaziyatga mos tarzda tanlash so'zni yangi ma'noda qo'llash usullaridan bo'lib, tildan foydalanishda bu usulga murojaat qilmaslikning esa imkoni yo'q. Shuni ta'kidlash kerakki, ona tilida so'zlashuvchi o'quvchilar tomonidan o'zbek tili lug'atini o'zlashtirishda so'zlarning ma'nosini tushunish o'ziga xos tarzda qiyinchilik tug'diradi. Ma'lumki, ma'lum bir leksema faol nutq tarkibiga kirishi uchun ma'lum bosqichlarni bosib o'tadi. E.I.Passov nutqda leksik mahorat va uning shakllanishida bir necha bosqichlardan iborat deb ko'rsatib o'tadi:

- nutqda so'zni idrok etish;
- so'z ma'nosini anglash;
- nutqda so'zlarni taqlid qilib qo'llash;
- kommunikativ maqsadlarda obyektlar va voqelikni nomlash qobiliyati;
- yangi o'zlashtirilgan so'zni avval o'zlashtirilgan so'z bilan birlashtirish qobiliyati;
- nutq uchun mustaqil so'z tanlash va uni boshqa so'zlar bilan birga turli nutqiy vaziyatlarda qo'llay olish. [1;3]

Ma'nodosh so'zlar bilan ishlash lug'at ishining eng muhim yo'nalishi bo'lib, bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarining faol so'z boyligini oshiradi. Boshlang'ich sinflar uchun ona tili o'qitish bo'yicha ishlab chiqilgan dastur kichik yoshdagi o'quvchilarning lisoniy bilimlarning barcha sohalari bo'yicha asosiy ma'lumotlarini o'zlashtirishga, shuningdek, maktab o'quvchilarining nutqini rivojlantirishga qaratilgan. Ularda nutqning rivojlanishi leksik birliklarni o'zlashtirishdan boshlanadi. A.V. Tekuchevning ta'kidlashicha, agar o'quvchilar nutqi boy frazeologik birliklar, turli sintaktik tuzilmalardan foydalanish ko'nikmalariga, so'zlarning uslubiy xususiyatlari va ma'no nozikliklarini ajrata olish qobiliyatiga asoslanmagan bo'lsa, izchil, mazmunli yoki ifodali bo'lishi mumkin emas. [1;14;20].

Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitish dasturida belgilanganidek, 1-sinfdan boshlab o'quvchilarni ma'nosi o'xshash so'zlar bilan bosqichma-bosqich tanishtirib boriladi. Ammo shuni alohida ta'kidlash kerakki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini ona tili leksikasini o'rganish darajasini rivojlantirishning o'zi bilan to'liq hal etib bo'lmaydi. Maktab dasturlarida nazarda tutilgan so'zlar va ularning ma'nolari, ma'lum bir so'zlarning leksik guruhlari jumladan, ma'nodosh so'zlar, ya'ni ma'nodosh so'zlar bilan grammatik jihatdan to'liq tanishish vazifasi qo'yilmagan. Binobarin, dastur va darsliklarda boshlang'ich sinf o'quvchilariga dastlabki bilimlarni berish nazarda tutilgan. O'quvchilarga berib boriladigan so'zlar ona tilining ajralmas qismi sifatida ko'rib chiqilmaydi, ya'ni leksikografik tahlillar olib borilmasligi, til ko'nikmalarini shakllantirish amaliy xarakterga ega emasligi o'quvchilarning bilim darajasiga salbiy ta'sir qiladi.

Umumta'lim maktablarida ona tili darsliklari bo'yicha muvafaqqiyatli til o'rgatish uchun asos, bir tarafdin tasviriy o'quv materiallarining (jumladan, o'qish savodxonligi darsligida berilgan leksik-grammatik jihatdan mukammal shakllantirilgan matnlar) va ularni darsliklarga kiritishning psixologik asoslanganligi bo'lsa, boshqa tomondan ushbu materiallarning o'quvchilar bilimi va hissiy rivojlanishiga ta'sir qilishini nazarda tutuvchi badiiy ifoda vositalari hamda ya'ni turli ma'nolarni ifodalovchi ma'nodosh so'zlarning qo'llanilishi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Biroq, bu ikkala tamoyil ham dialektik qarama-qarshilikdadir: matnlar qanchalik qiziqarli bo'lsa, ular leksik va grammatik jihatdan qanchalik murakkab bo'lsa mazmuni esa aksincha. [9;16;19]

NATIJA VA MUHOKAMA

Ma'nodosh so'zlar ustida ishlashda darsliklarda berilgan bu kabi so'zlarni illyustrativ elektron-o'quv lug'atlar va leksik-grammatik ma'lumotlar minimumini muvozanatlash orqali yaxlit tizimda o'qitish o'quvchilarda til ko'nikmalarini oshishiga xizmat qiladi. "Ona tili ta'limi maqsadi talimning umumiy maqsadiga uyg'un bo'ib, uning ikki talabini o'zida juz'iyashtiradi: ijodiy va mustaqil fikrlash malakasini qaror toptirish hamda buning natijasida ta'lim oluvchining har tomonlama yetuk shaxs sifatida kamol topishi". [1; 14].

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish yo'li bilan ularda ona tili ta'limi ko'nikmalari, o'quv-tarbiya muhitida o'quvchilar ongilligi, nutqining izchilligi va kognitiv rivojlanishda o'ziga xos faollik ta'minlanadi. Ma'nodosh so'zlarni nutqda faol qo'llash uchun qo'llanilgan nutqdan tilga qarab borish texnologiyasi pedagogik jarayonda o'quvchilarda kreativ kompetentlikni oshiradi. Bunda o'quvchilar oldin o'rganilgan mavzularga oid ma'nodosh so'zlar lug'ati ustida ish olib boradilar. Ma'nodosh so'zlar qatoridan joy olgan so'zlar ma'nosini tahlil qilish va ular ishtirokidagi topshiriqlarni bajarish orqali dastlabki xulosalar paydo bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilar tafakkuri va nutqini o'ziga xos tarzda rivojlantirish imkonini beradi.

Ona tili ta'limida ma'nodosh so'zlarni o'rgatish jarayoni nutqdan tilga qarab borish metodikasi bilan uyg'unlashtiriladi. Bu jarayon boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ kompetensiyalarini (ma'nodosh so'zlarni izlab topish, ularni til hodisasi sifatida anglash, ularga sharhlar tayyorlash, berilgan ma'nodosh so'zlar qatoridan foydalanib kichik matnlar tuzish (sinflar kesimida), ma'nodosh so'zlarga tegishli ta'riflarni o'z xulosalariga solishtirish kabi) shakllanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkurini rivojlantirish maqsadida ham ona tilida mavjud ma'nodosh so'zlar qatori va ular ifodalagan ma'nolar o'rgatiladi. Ma'nodosh so'zlarni matn tarkibida o'rgatish talabi ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish imkoniyatini oshiradi. Ona tili fanining leksika bo'limi umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinflaridan boshlab o'rgatilishi natijasida o'quvchilarda so'z ma'nolari, ma'nodosh so'zlar va leksik hodisalar to'g'risida dastlabki tasavvur va bilimlar paydo bo'ladi. [3.769-772]

Bugungi kunga kelib boshlang'ich sinf o'quvchilariga ona tilining leksik tizimini o'rgatish bo'yicha ko'plab tadqiqotchi va olimlar qator izlanishlar olib bormoqdalar. Tilshunos olim B. Mengliev o'zining «Ona tili darslarida so'z ma'nolari tahlili» nomli maqolasida maktab o'quvchilarning so'z ma'nolarini o'zlashtirishi ularda tafakkur va nutq rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi deya ta'kidlaydi. Maqolada olim so'z ma'nolari, ko'chma ma'nolar haqida ham fikr yuritib, o'z qarashlarini misollar bilan asoslaydi. Ma'lumki, mustaqil so'zlar borliq xodisalarining ongdagi aksi bo'lgan tushunchalarni ifodalovchi ma'nolarga ega. Borliqdagi bir-biri bilan qaysidir jihatdan bog'langan so'z yoki bir necha o'xshash narsa-xodisalarini ifodalovchi so'zlar ko'p ma'noni va tushunchani aks ettiruvchilari esa ma'nodosh so'zlar sifatida baholanadi. [1; 5-b].

Ma'nodosh so'zlarni va ularning lug'aviy ma'nolari o'rtasidagi farqlanishlarni o'rgatish to'g'risida Yu.D.Apresyannning quyidagi fikrlarini ham keltirish mumkin: "to'liq ma'lumot berish qoidasini saqlash asosida bosqichma-bosqich, ortiqchalikdan saqlangan holda barcha ma'nolarning o'zaro ta'sir qoidalari va semantik komponentlari bilan birga" keltirish o'rinli deb hisoblaydi. [57; 10]. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ona tili darsliklarida tanlanadigan matnlar qanchalik tarbiyaviy ahamiyatga ega va mavzu jihatdan rang-barang bo'lishi hamda o'quvchilar lug'at boyligini o'stirishga xizmat qilishi uchun ma'nodosh so'zlardan foydalanish yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirish imkoniyatlarini shuncha kengaytiradi. O'qituvchi tomonidan tanlanadigan matnlar nafaqat o'rgatilayotgan turli til xodisalariga muvofiq kelishi, balki kuchli tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi lozim. Ma'nodosh so'zlar ishtirokida tanlanadigan matnlar mavzu jihatidan rang-barang bo'lsa, o'quvchilarning til materiallariga qiziqishi yanada kuchayadi [3; 72-92 -b].

Ona tilini o'rgatishga doir nazariy masalalar til hodisalarini mustaqil kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash orqali yangi bilimlar olishga qaratilgan bo'lishi o'quvchilarda til shaxsini tarbiyalashga yordam beradi. Bu kabi masalalar, asosan, boshlang'ich sinf o'qituvchisining ijodiy faoliyat tajribasiga tayangan holda ona tilning nazariy asoslarini ochishga xizmat qiladi. Ayniqsa, o'zbek tilining nazariy asoslarini va uning leksik boyligini o'rganishda lingvistik masalalar muhim rol o'ynaydi. [4. B-272-279].

Bu jarayonning natijasi sifatida boshlang'ich sinf o'quvchilari ona tilida ma'nosi bir-biriga yaqin, shakli har xil, bo'lgan ma'nodosh so'zlarni kuzatish, taqqoslash ularning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash orqali keng bilimlarni egallashga tomon dadil qadam tashlaydilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga ma'nodosh so'zlarni o'rgatishning o'ziga xosligi haqida gapirganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, nutqda ma'nodosh so'zlardan foydalanish o'quvchilarning tafakkurini kengaytirishga imkon beradi. Ularni nutqiy muloqot vaziyatida eng kerakli, eng mosini tanlashga o'rgatadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlardan kelib chiqib shuni alohida ta'kidlash lozimki, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirishning metodik tizimini takomillashtirish modeli yaxlit, ochiq tashkil etilgan bo'lib, boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish metodikasini takomillashtirishni maqsadli rivojlantirish va belgilangan maqsadni natijaga mosligini aniqlash imkonini beradi. Jarayonning amaliyotga tatbiqi boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida ma'nodosh so'zlarni faollashtirish metodikasini takomillashtirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Текучев А.В. Методика русского языка в средней школе: Учебник для студентов пед. ин-тов. (2-е изд. перераб.). - М.: Просвещение, 1970. —432 с.
2. Yuldasheva D.N. O'zbek tilini o'qitish metodikasi (kognitiv-pragmatik yondashuv asosida). - Buxoro: OOO "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti. 2021.- 6 b.
3. Менглиев Б. Она тили дарсларида сўз маънолари тахлили. Халқ таълими. 6-сон, 2000.с 5 4. Апресян Ю.Д. В какой мере можно формализовать понятие синонимии? // Облик слова: Сборник статей. М.: Русские словари, 1997. С. 10.
4. Фуломов А. Она тили ўқитиш принциплари ва методлари. Т.,Ўқитувчи, 1992, 6-72-92 б. 6. Muhammadkadirova, G. D., Abdulhamitovna, S. H., & Qizi, R. D. T. (2022). The Role of Innovative Training Methods in Individualization Training. *Spanish Journal of Innovation and Integrity*, 6, 272-279.
5. Qizi, R. D. T., & Qizi, M. F. M. (2021). Developing the critical thinking of primary school students. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 769-772.
6. Rustamova, D. T. K., & Mamajonova, F. M. K. (2022). STAGES OF ACTIVATING LEXICAL SYNONYMS IN THE SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 750-756.
7. Toyirovna, R. D. (2021). Critical Thinking Process in School Children. *International Journal of Culture and Modernity*, 11, 165-168.
8. Rustamova, D. (2023). THE IMPORTANCE OF A COGNITIVE APPROACH TO LEARNING SYNONYMS IN PRIMARY GRADES. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 3(3), 32-36.
9. Toyirjonovna, R. D. (2023). Importance of Cognitive Approach to Learning Synonyms in Primary Grades.
10. Rustamova, D. (2023). LINGUISTIC NATURE OF SYNONYMS. In *Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 10, pp. 108-110)*.
11. Niezova, M., & Rustamova, D. (2020). Ona tili darslarida oquvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatuvchi interaktiv va noan'anaviy metodlari. *Молодой ученый*, (4), 480-481.
12. Dilobar Maxsitovna, K., & Toyirjonovna, R. D. (2023). COGNITIVE APPROACH TO LEARNING SYNONYMS IN PRIMARY EDUCATION SYSTEM. *O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(20), 521-525.
13. Akbarova, Z., & Rustamova, D. (2023). STAGES OF ACTIVATING LEXICAL SYNONYMS IN THE SPEECH OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS. *Scientific Journal of the Fergana State University*, 28(3), 75.
14. Akbarova, Z., & Rustamova, D. (2022). BOSHLANG'ICH SINFI O'QUVCHILARI NUTQIDA LEKSIK SINONIMLARNI FAOLLASHTIRISH BOSQICHLARI. *Scientific Journal of the Fergana State University*, (3), 75-75.
15. Tillavoldiyevna, K. Z. (2023). The Improving of Synonyms in The Speech of Primary School Students. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 1(3), 5-7.
16. Qizi, D. R. T., & Qizi, R. S. O. (2024). TURKISTONDA JADIDCHILIK HARAKATI DAVOMIDA TA'LIM-TARBIYANING AHAMIYATI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 26), 21-24.
17. Qizi, D. R. T., & Qizi, D. A. I. (2024). BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA INTERAKTIV METODLAR ORQALI O'QUVCHILARNING LUG'AT BOYLIGINI VA NUTQINI O'ZGARTIRISH. *Science and innovation*, 3(Special Issue 26), 125-127.
18. Qizi, D. R. T., & Qizi, O. D. F. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIM FANLARINI O'QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI MEROSIDAN FOYDALANISH. *Science and innovation*, 3(Special Issue 26), 77-80.
19. Qizi, D. R. T., & Qizi, J. S. B. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIM-BILIMLAR POYDEVORI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 26), 37-41.
20. Toyirovna, R. D. (2020). AJMR. AJMR.